

## AYOLLAR VA BOLALARGA NISBATAN KIBERZO'RAVONLIKNING IJTIMOIY-FALSAFIY OQIBATLARI (AQSH VA BUYUK BRITANIYA TAJRIBASI ASOSIDA)

<https://doi.org/10.5281/zenodo.8286227>

**Alimov Sardor Komil o'g'li**

*"Oila va xotin-qizlar" ilmiy-tadqiqot instituti  
bo'lim boshlig'i, falsafa fanlari bo'yicha  
falsafa doktori (PhD)*

### **Annotatsiya.**

Mazkur maqolada global ijtimoiy muammolardan biri bo'lgan kiberzo'ravonlikning ijtimoiy oqibatlari, uning oldini olish bo'yicha AQSh va Buyuk Britaniya mamlakatlarida amalga oshirilayotgan ishlar yoritib berilgan. Muallif kiberzo'ravonlikning ayollar va bolalarga nisbatan sodir bo'lishining og'ir oqibatlariga e'tibor qaratgan.

### **Annotation.**

*This article describes the social consequences of cyber violence, which is one of the global social problems, and the work being done in the USA and Great Britain to prevent it. The author focused on the serious consequences of cyber violence against women and children.*

### **Аннотация.**

В данной статье описаны социальные последствия кибербуллинга, являющегося одной из глобальных социальных проблем, и работа, проводимая в США и Великобритании по его предотвращению. Автор акцентировал внимание на серьезных последствиях кибернасилия в отношении женщин и детей.

### **Kalit so'zlar.**

*kiberzo'ravonlik, kiberbullying, kibermakon, kiberstalking, bolalar, ayollar, AQSh, Buyuk Britaniya*

### **Keywords**

*cyber violence, cyberbullying, cyberspace, cyberstalking, children, women, USA, UK*

### **Ключевые слова**

*кибернасилие, кибербуллинг, киберпространство, киберстalking, дети, женщины, США, Великобритания*

### **KIRISH**

Bugungi kunda globallashuv tufayli butun dunyo bo'yicha dolzarb ahamiyat kasb etib borayotgan, bir vaqtning o'zida virtual makon hamda real makonga

daxldor bo'lgan ijtimoiy, axloqiy, huquqiy muammolardan biri kibezo'ravonlik hisoblanadi. Real hayotdagi elementlarning virtual hayotga o'tish imkoniyati hamisha ijobiy oqibatlarga olib kelmaganidek, kibermakondagi insonlarga nisbatan kibertahdidlarning mavjudligi bugungi kunda asosiy ijtimoiy muammolardan biriga aylanib, falsafiy jihatdan mazkur muammoni tahlil etish dolzarb ahamiyat kasb etib bormoqda. Kiberzo'ravonlikning ko'plab turlari mavjud bo'lib, kiberstalking, kiberharrasment, doksing, kibertrolling, kiberbulling<sup>70</sup> kabilar shular jumlasidan.

Zo'ravonlikning ushbu turi hozirgi davrda texnologiyalarning keng ko'lamda rivojlanishi va aholining aksar qatlami ijtimoiy tarmoqdan foydalanishi bilan bog'liq. Chunki internet inson yashash tarzini o'zgartirib, u orqali muttasil davom etuvchi, takroriy va uzoq vaqt davomida birovning sha'ni va qadr-qimmatini kamsituvchi harakatni amalga oshirish ham mumkin<sup>71</sup>. Ayniqsa, mazkur holatning ayollar va voyaga yetmagan bolalarga nisbatan sodir bo'lishi og'ir ijtimoiy, huquqiy, psixologik oqibatlarga olib keladi.

### **ASOSIY QISM**

Bugungi kunda kiberzo'ravonlikka qarshi kurash bir mamlakatning muammosi emas, balki insoniyat birlashgan holatda kurashishi zarur bo'lgan global ijtimoiy muammoga aylandi. Dunyoning mazkur sohada yetakchi mamlakatlar deb hisoblanuvchi AQSh, Buyuk Britaniya, Germaniya, Yaponiya kabi mamlakatlarning tajribasini o'rganish ayollar va bolalarga nisbatan sodir etilgan kiberzo'ravonlikka qarshi kurash, mazkur holatlarning oldini olishga xizmat qiladi.

**AQSh** – dunyodagi iqtisodiy jihatdan eng taraqqiy etgan mamlakatlardan biri. Shu bilan bir qatorda, mamlakatda kiberxavfsizlik masalasiga ham alohida e'tibor qaratiladi. Xususan, AQSh Birlashgan Millatlar Tashkilotining **Xalqaro elektraloqa ittifoqi** tomonidan **2020-yilda** e'lon qilingan kiberxavfsizlik darajasi bo'yicha **Global kiberxavfsizlik indeksi (Global Cybersecurity Index)**da |1-o'rinni egallagan<sup>72</sup>.

Mamlakatda kiberxavfsizlik darajasi yuqori bo'lgani bilan kiberzo'ravonlik, xususan, bolalarga nisbatan zo'ravonlik bo'yicha ko'plab muammolar mavjud. Misol uchun, mamlakatda umrining ma'lum bir davrida kiberbullingni boshdan kechirgan shaxslar **2007-yildagi 18% dan 2019-yilga kelib 37% gacha, ikki baravar**

<sup>70</sup> Alimov, S. K., & Alimova, N. R. (2023). KIBERSTALKING: TURLARI, KO'RINISHLARI VA IJTIMOIY OQIBATLARI. Academic Research in Educational Sciences, 4(7), 106–113.

<sup>71</sup> Aripova, A. (2022). KIBER ZO 'RAVONLIK DAN BOXABARMISIZ?. Евразийский журнал академических исследований, 2(9), 46-48.

<sup>72</sup> [https://www.itu.int/dms\\_pub/itu-d/opb/str/D-STR-GCI.01-2021-PDF-E.pdf](https://www.itu.int/dms_pub/itu-d/opb/str/D-STR-GCI.01-2021-PDF-E.pdf)

**ko'proqqa oshgan**<sup>73</sup>. Kiberbullingga uchragan o'quvchilarining 60% dan ortig'i bu ularning maktabda o'qish va o'zini xavfsiz his qilishida katta salbiy ta'sir ko'rsatganini aytgan<sup>74</sup>. AQSh o'smirlarining **59 foizi Internetda haqorat** yoki **ta'qibga** uchragan va **90 foizdan** ortig'i bu ularning yoshidagi odamlar uchun asosiy muammo deb hisoblaydi<sup>75</sup>. O'smirlarning deyarli **24 foizi (o'rta maktab o'quvchilarining 4 nafardan 1 nafari)** internetda **seksting** ya'ni shahvoni tasvirni yuborishni so'rash holatiga duch kelgan<sup>76</sup>. O'quv yili davomida maktabda haqoratlangani haqida xabar bergan 12-18 yoshdagi o'quvchilarining **15 foizi onlayn yoki matn orqali haqoratlangan**. O'rta maktab o'quvchilarining taxminan **14,9 foizi** so'rovdan oldingi **12 oy ichida elektron zo'ravonlikka uchragan**<sup>77</sup>.

AQShda kiberzo'ravonlikning ko'plab turlari uchraydi. Ular orasida **kiberstalking, kiberbullying, doksing** kabilarni ajratib ko'rsatish mumkin. AQShda kiberstalking va kiberbullying **bo'yicha yaxlit federal qonun qabul qilinmagan**. O'z navbatida, mamlakatdagi har bir shtat o'z yurisdiksiyasidek kelib chiqib, kiberzo'ravonlikka qarshi qonunlar qabul qilgan, turli ko'rinishda jazo belgilagan. **50 ta shtatdan 49 tasida** zo'ravonlik (bullying) bo'yicha qonunlar mavjud<sup>78</sup>.

*Kiberstalking va kiberbullying tushunchalari o'rtasida AQSh qonunchiligidan farq deyarli mavjud emas. Asosiy farq yoshga bog'liq bo'lib, **kattalarga nisbatan** sodir etilsa, **kiberstalking, bolalarga nisbatan** sodir etilsa esa **kiberbullying** sifatida tasniflanadi.*

Yaxlit federal qonun bo'lmasada, umumiy **AQSh kodeksining jinoyatchilikka bag'ishlangan 18 kitobida** kiberzo'ravonlikka taalluqli bo'lgan qator moddalar, bandlar kiritilgan. Masalan, **18 AQSh Kodeksi 2261A modda (18 USC § 2261A)**sida stalking (ta'qib)ning tarkibida kiberstalkingga oid 2-band mavjud bo'lib, mazkur qonun (modda) **AQSh Kongressi** tomonidan 2011-yilda qabul qilingan. Unga ko'ra kibermakondagi stalking umumiy stalkingning bir ko'rinishi sifatida tasniflanadi hamda "*boshqa shaxsni o'ldirish, jarohat yetkazish, bezovta qilish yoki qo'rqitish maqsadida pochtadan, har qanday interaktiv kompyuter xizmatidan yoki elektron aloqa xizmatidan foydalanish*" sifatida ta'riflangan.

AQShda kiberzo'ravonlikka qarshi turli davlat va nodavlat organlari shug'ullanishadi. **Politsiya, shtat va federal darajadagi huquqni muhofaza qilish organlari, sudlar** shular qatorida. Shuningdek, **AQSh Sog'liqni saqlash va aholiga**

<sup>73</sup> <https://cyberbullying.org/school-bullying-rates-increase-by-35-from-2016-to-2019>

<sup>74</sup> <https://cyberbullying.org/federal-commission-on-school-safety>

<sup>75</sup> <https://www.pewresearch.org/internet/2018/09/27/a-majority-of-teens-have-experienced-some-form-of-cyberbullying/>

<sup>76</sup> <https://cyberbullying.org/teen-sexting-research-2016-2019>

<sup>77</sup> <https://www.stopbullying.gov/resources/facts>

<sup>78</sup> <https://www.stopbullying.gov/resources/laws>

xizmat ko'rsatish departamenti kiberbullying bo'yicha federal yurisdiksiya, maktablar va bolalarning holati bo'yicha ma'lumotlar beradi, kiberbullying qarshi kurashishda maslahat va ko'rsatmalar taqdim etadi<sup>79</sup>.

**PACER Milliy zo'ravonlikni oldini olish markazi** (PACER's National Bullying Prevention Center) - **2006-yilda** tashkil topgan. Bolalar, ota-onalar, o'qituvchilar uchun **bepul ma'lumotlar, tadbirlar va mahsulotlarni** taqdim etadi<sup>80</sup>. PACER Milliy zo'ravonlikni oldini olish markazining **boshlang'ich sinf o'quvchilari** uchun mo'ljallangan <https://pacerkidsagainstbullying.org/> va **o'smirlar uchun mo'ljallangan** <https://pacerteensagainstbullying.org/> saytlari ham mavjud. Mazkur saytlarda o'quvchining yosh xususiyatidan kelib chiqib kontent shakllantiriladi. Kiberbullying nima ekanligi, bunday holatda nima qilish kerakligi interaktiv usullar bilan tushuntiriladi.

**AQShda kiberzo'ravonlik va kiberbullying bilan bog'liq holatda jabrlanuvchilarga ko'mak berish bilan shug'ullanadigan ko'plab nodavlat tashkilotlar, fuqarolik jamiyati institutlari ham mavjud.**

**Megan Mayer jamg'armasi** – 2007-yil dekabr oyida Tina Mayer tomonidan asos solingan. Asosiy faoliyati **kiberbullying, kiberzo'ravonlik va o'z joniga qasd qilishni tugatish harakatlarini** qo'llab-quvvatlash. Turli xayriya tadbirlari, sport musobaqalari, ommaviy nutqlar, grantlar tashkil etadi. Targ'ibot tadbirlarida 600 mingga yaqin auditoriyani qamrab olgan. Shuningdek, **psixoterapevtik yordam berish** ham tashkil etilgan<sup>81</sup>.

**PEN America** – AQShdagi eng yirik yozuvchilar, ijodkorlar, san'at vakillari uyushmasi. Faoliyatining bir yo'naliishi **yozuvchi ayollarni onlayn zo'ravonlik va ta'qibdan himoya qilish**. Maslahatlar, onlayn jamiyatlar tuzishni qo'llab-quvvatlaydi, ijtimoiy tarmoqlarda **chellendjlar va aksiyalar** (masalan, #she writes chellendji) tashkil etadi<sup>82</sup>.

**Kiberbullying tadqiqot markazi** (Cyberbullying Research Center) - **prof. Samir Hinduja** va **prof. Jastin V. Patchin** tomonidan **2002-yilda** tashkil etilgan. **2005-yildan** sayt ishga tushirilgan. Markaz kiberbullyingga oid **tadqiqotlar** o'tkazadi, **200 dan ortiq** tashkilotlar bilan hamkorlik qiladi. Markazning sayti o'smirlar o'rtasida kiberbullyingning tabiatni, ko'lami, sabablari va oqibatlari haqida dolzarb ma'lumotlarni taqdim etishga bag'ishlangan. Sayt **ota-onalar, o'qituvchilar, ruhiy salomatlik bo'yicha mutaxassislar, huquqni muhofaza qilish organlari** xodimlari

<sup>79</sup> <https://www.stopbullying.gov/>

<sup>80</sup> <https://www.pacer.org/bullying/>

<sup>81</sup> <https://www.meganmeierfoundation.org/>

<sup>82</sup> <https://onlineharassmentfieldmanual.pen.org/>

va yoshlar bilan ishlaydigan boshqa shaxslar (shuningdek, yoshlarning o'zлari) uchun manba bo'lish uchun mo'ljallangan<sup>83</sup>.

**Buyuk Britaniya** – dunyodagi yana bir iqtisodiy jihatdan eng taraqqiy etgan mamlakatlardan biri. B.Britaniya Birlashgan Millatlar Tashkilotining **Xalqaro elektraloqa ittifoqi** tomonidan **2020-yilda** e'lon qilingan kiberxavfsizlik darajasi bo'yicha **Global kiberxavfsizlik indeksi (Global Cybersecurity Index)**da **2-o'rinni** egallagan<sup>84</sup>.

O'z navbatida, Britaniyada bolalar va ayollarga nisbatan **kiberbullying, doksing** va boshqa shu kabi **kiberzo'ravonlik turlari** dolzarb muammolar hisoblanadi. Britaniyada kiberzo'ravonlikka qarshi yaxlit qonun qabul qilinmagan bo'lsada, mavjud qonunchilik tizimi onlayn zo'ravonlikni ham tartibga soladi.

Buyuk Britaniyadagi **12 yoshdan 15 yoshgacha** bo'lgan bolalarning **yarmidan ko'prog'i so'nggi bir yil** ichida qo'rqtish, ta'qibning qandaydir shakllariga, jumladan, **kiberbullyingga** duch keldi. **Milliy Ijtimoiy Tadqiqotlar Markazi** tomonidan olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, yoshlarning **47 foizi 14 yoshigacha** kamida bir marotaba kiberzo'ravonlikka duchor bo'lganligi haqida xabar berishgan. Xuddi shu tadqiqotga ko'ra, o'sha yosh guruhidagi **qizlar o'g'il bolalarga qaraganda** ko'proq haqoratlanadi<sup>85</sup>.

Kiberbullying qurbanlari uchun xayriya bilan shug'ullanuvchi tashkilot – **Cybersmile Foundation** ma'lumotlariga ko'ra, Angliya va Uelsda **har 20 daqiqada 10 yoshdan 19 yoshgacha bo'lgan bir bola** o'z joniga qasd qilishga urinadi, Buyuk Britaniyada **har uchinchi bola kiberbullyingdan** aziyat chekadi<sup>86</sup>.

Britaniyada kiberzo'ravonlik yoki uning konkret biror turi bo'yicha **maxsus qonun mavjud emas**. Shuningdek, kiberzo'ravonlikka **aniq yuridik ta'rif berilmagan**<sup>87</sup>. Britaniya hukumati **offlayn rejimda noqonuniy bo'lgan narsalar Internetda ham noqonuniy hisoblanishi bo'yicha umumiyluquqiy tamoyilga** amal qiladi<sup>88</sup>. Shundan kelib chiqib, ko'plab qonunlarda g'ayriqonuniy hisoblangan xatti-harakatni Internetda sodir etish ham mumkin emasligi bo'yicha bandlar kiritilgan. Misol uchun:

- “**Ta'qibdan himoya qilish to'g'risida”gi Qonun** (Protection from Harassment Act 1997) – 1997-yilda Britaniya parlamenti tomonidan qabul qilingan va Qirolicha tomonidan imzolangan. Mazkur qonunga **2012-yil 25-noyabrda**

<sup>83</sup> <https://cyberbullying.org/about-us>

<sup>84</sup> [https://www.itu.int/dms\\_pub/itu-d/obp/str/D-STR-GCI.01-2021-PDF-E.pdf](https://www.itu.int/dms_pub/itu-d/obp/str/D-STR-GCI.01-2021-PDF-E.pdf)

<sup>85</sup> <https://www.nationalbullyinghelpline.co.uk/cyberbullying.html>

<sup>86</sup> <https://www.internetsafetystatistics.com/anti-cyberbullying-laws-in-uk/>

<sup>87</sup> <https://anti-bullyingalliance.org.uk/tools-information/all-about-bullying/bullying-and-law/online-bullying-and-law>

<sup>88</sup> Pat Strickland Jack Dent. Online harassment and cyber bullying// BRIEFING PAPER. 2017. P. 7. <https://researchbriefings.files.parliament.uk/documents/CBP-7967/CBP-7967.pdf>

**kiberstalking** bo'yicha band qo'shilib, o'zgartirish kiritilgan (**2A modda 3 qism d bandi**). Unga ko'ra:

*Quyida, ta'qib qilish bilan bog'liq bo'lgan harakatlar yoki harakatsizlik misollari keltirilgan:*

*(d) shaxs tomonidan internet, elektron pochta yoki boshqa elektron aloqa shakllaridan foydalanishni kuzatish;*

Mazkur huquqbuzarlikni sodir etganda, quyidagi jazo turlari qo'llanilishi belgilangan:

•*51 haftadan ko'p bo'lмаган ozodlikдан mahrum qilish;*

•*Standart shkala bo'yicha 5-darajadan oshmaydigan (5 000 funt-sterlinggacha) jarima;*

•*har ikkala jazo bir vaqtning o'zida*<sup>89</sup>.

Britaniyada yoshlar va bolalarga nisbatan kiberzo'ravonlikka qarshi kurash kampaniyalari "**Britaniya bolalarning Internetdan foydalanishlari uchun eng xavfsiz mamlakatga aylanadi**" g'oyasi asosida amalga oshiriladi<sup>90</sup>. Britaniyada kiberzo'ravonlikka qarshi ko'plab dasturlar, tashkilotlar siyosati ishlab chiqilgan.

Masalan, mamlakatda **2016-2021-yillarga** mo'ljallangan **Milliy kiberxavfsizlik strategiyasi** qabul qilinib amalga oshirilgan (byudjeti - **1,9 mlrd funt-sterling**). Strategiya asosida **Milliy kiberxavfsizlik dasturi** ishlab chiqilgan (byudjeti - **1,3 mlrd funt-sterling**). Strategiya **12 ta strategik natijaga** erishishni maqsad qilgan<sup>91</sup>.

Shuningdek, **2018-yilda Qirollik prokuratura xizmati (The Crown Prosecution Service (CPS))** tomonidan Ijtimoiy tarmoqlar va boshqa elektron kommunikatsiyalar foydalanish bo'yicha yo'riqnomalar ishlab chiqilgan bo'lib, oxirgi marotaba **2022-yil 19-dekabr va 2023-yil 9-yanvar** kunlari qayta ko'rib chiqilgan<sup>92</sup>.

Umuman olganda, Buyuk Britaniyada ko'plab davlat va nodavlat tashkilotlar onlayn zo'ravonlik, kiberbullying va boshqa shu kabi masalalarda faoliyat yuritib keladi. Ular jumlasiga quyidagilarni kiritish mumkin:

- **Milliy kiberxavfsizlik markazi** – **2016-yil 3-oktyabr** kuni tashkil etilgan bo'lib, B.Britaniyaning **hukumatiga tegishli** tashkilot hisoblanadi<sup>93</sup>.

**Asosiy vazifasi** – davlat va xususiy sektorga kompyuter xavfsizligi tahdidlaridan qochish bo'yicha maslahat va yordam ko'rsatish.

<sup>89</sup> <https://www.legislation.gov.uk/ukpga/1997/40/section/2A>

<sup>90</sup> DCMS, Government launches major new drive on internet safety, 27 February 2017. <https://www.gov.uk/government/news/government-launches-major-new-drive-on-internet-safety>

<sup>91</sup> <https://publications.parliament.uk/pa/cm201719/cmselect/cmpubacc/1745/1745.pdf>

<sup>92</sup> <https://www.cps.gov.uk/legal-guidance/social-media-and-other-electronic-communications>

<sup>93</sup> <https://www.ncsc.gov.uk/>

**Shtab-kvartirasi - London shahrida, 1000 dan ortiq xodimi mavjud. Yillik byudjeti - 1,9 mlrd funt-sterling<sup>94</sup>.**

- **Qirollik prokuratura xizmati** (The Crown Prosecution Service (CPS)). Prokuratora kiberzo'ravonlikka qarshi targ'ibot materiallarini tayyorlash va amaliy faoliyatda kiberzo'ravonlikka qarshi kurash bilan shug'ullanadi.

- **Britaniya ta'lif departamenti** (Department for Education) - **ota-onalar, tarbiyachilar<sup>95</sup>, o'qituvchilar va maktab xodimlari<sup>96</sup>** uchun yo'riqnomalar ishlab chiqilgan.

- **Milliy kiber jinoyatlar bo'limi** (The National Cyber Crime Unit (NCCU)) - 2013-yilda tashkil etilgan **Milliy jinoyat agentligining bo'linmasi**. Kiber jinoyatning har qanday turi, shu jumladan, kiberzo'ravonlikka qarshı kurashadi.

**Nodavlat tashkilotlar:**

- **Bolalarga nisbatan shafqatsizlikning oldini olish jamiyati** (National Society for the Prevention of Cruelty to Children (NSPCC)) - "Bolalarni zo'ravonlik va kiberbullyingdan himoya qilish" mavzusida onlayn treninglar, o'quv kurslari tashkil etadi. Bugungi kunda jamiyat saytida **40 ga yaqin turli mavzularda va turli formatlarda** treninglar joylashtirilgan<sup>97</sup>. Shuningdek, jamiyat bolalarga nisbatan zo'ravonlik, jumladan, kiberzo'ravonlik bo'yicha **quyidagi xizmatlarni taklif etadi**:

- *bolalar va oilalar bilan bevosita ishslash;*
- *bolalarni himoya qilish bo'yicha maslahatlar berish;*
- *maktab va kollejlar uchun xizmatlar;*
- *hududiy va mahalliy hamjamiyatlarni qo'llab-quvvatlash.*

- **Axborot xavfsizligi forumi** (The Information Security Forum (ISF)) - axborot xavfsizligi masalasi bo'yicha **mustaqil tashkilot** hisoblanadi. 30 yildan ortiq vaqt davomida axborot xavfsizligi bo'yicha **ilg'or tadqiqotlar o'tkazish, konsalting xizmatlari** bilan shug'ullanadi<sup>98</sup>.

- **Childnet - Britaniyada joylashgan xayriya tashkiloti** bo'lib, u bolalar, yoshlar va oilalarning onlayn faoliyatlarini qo'llab-quvvatlaydi. **1997-yildan** buyon faoliyat yuritadi. **Asosiy vazifasi** - internetni bolalar va yoshlar uchun ajoyib va xavfsiz joyga aylantirishda boshqa tashkilotlar bilan hamkorlik qilishdan iborat. Shuningdek, tashkilot **quyidagilarni amalga oshiradi**:

<sup>94</sup> [https://en.wikipedia.org/wiki/National\\_Cyber\\_Security\\_Centre\\_\(United\\_Kingdom\)](https://en.wikipedia.org/wiki/National_Cyber_Security_Centre_(United_Kingdom))

<sup>95</sup> [https://assets.publishing.service.gov.uk/government/uploads/system/uploads/attachment\\_data/file/444865/Advice\\_for\\_parents\\_on\\_cyberbullying.pdf](https://assets.publishing.service.gov.uk/government/uploads/system/uploads/attachment_data/file/444865/Advice_for_parents_on_cyberbullying.pdf)

<sup>96</sup> [https://assets.publishing.service.gov.uk/government/uploads/system/uploads/attachment\\_data/file/1069987/Cyberbullying\\_Advice\\_for\\_Headteachers\\_and\\_School\\_Staff\\_121114.pdf](https://assets.publishing.service.gov.uk/government/uploads/system/uploads/attachment_data/file/1069987/Cyberbullying_Advice_for_Headteachers_and_School_Staff_121114.pdf)

<sup>97</sup> <https://learning.nspcc.org.uk/child-abuse-and-neglect/bullying#skip-to-content>

<sup>98</sup> <https://www.securityforum.org/>

- 3-18 yosh orasidagi bolalar va ularning ota-onalari, o'qituvchilar uchun targ'ibot tadbirlarini tashkil etish;
- o'quv-seminarlarini o'tkazish;
- Britaniyada **Xavfsiz Internet kuni** tadbirlarini muvofiqlashtirish;
- B.Britaniya **Internet xavfsizlik Kengashi** va **Meta xavfsiflik bo'yicha maslahat kengashi Ijroiya kengashida** faoliyat olib borish va boshqalar<sup>99</sup>.

Umuman olganda, Britaniyada kiberzo'ravonlik holatlaridan **ayollarni** va **bolalarni ogohlantirish** bo'yicha ko'plab ishlar amalga oshirilgan. Xususan, **Angliya** va **Uelsda** 2006-yildagi "**Ta'lim va tekshiruvlar to'g'risida**"gi qonunning **89-bo'limiga** binoan, maktablarda yaxshi xulq-atvorni rag'batlantirish va o'quvchilar o'rtasida zo'ravonlikning barcha shakllarini oldini olish **siyosat (dastur) bo'lishi kerak**<sup>100</sup>.

2012-yilda o'zgartirilgan **Mustaqil mактаб standartlari** (Angliya) bo'yicha Nizom akademiyalar va boshqa turdagи mustaqil maktablardan zo'ravonlikka qarshi strategiyaga ega bo'lishini talab qiladi<sup>101</sup>. Ichki ishlar vazirligi 2015-yilda Angliya va Uelsdagi mактаб o'qituvchilari uchun kiberzo'ravonlik va uning oldini olish bo'yicha **qo'llanma ishlab chiqqan**<sup>102</sup>.

Bolalar kiberzo'ravonlik holatlariga uchraganda quyidagi davlat va nodavlat muassasalarga murojaat qilishi mumkin:

- <https://www.iwf.org.uk> - Internet Watch Foundationning kiberzo'ravonlik haqida elektron murojaat;
- **Childline 0800 1111** - bolalar telefon liniyasiga qo'ng'iroq;
- <https://www.ceop.police.uk/safety-centre> - politsiyaning bolalar xavfsizligi bo'limiga murojaat va boshqalar.

## **XULOSA**

Ayollar va bolalarga nisbatan sodir etiladigan kiberzo'ravonlikning oldini olish va unga qarshi kurashish bo'yicha AQSh va Buyuk Britaniya tajribasini o'rganib, quyidagi taklif va tavsiyalarni taqdim etish mumkin:

1. Aholining, xususan **bolalar va xotin-qizlarning** kiberzo'ravonlik, uning turlari, shakllari, kiberzo'ravonlikka uchraganda nimalar qilish zarurligi kabi ma'lumotlar joylashtirilgan, **to'g'ridan to'g'ri tegishli organlarga murojaat qilish, psixologik yordam ko'rsatish imkoniyati** mavjud bo'lgan **ixtisoslashtirilgan saytlar yaratish.**

<sup>99</sup> <https://www.childnet.com/>

<sup>100</sup> <https://www.legislation.gov.uk/ukpga/2006/40/contents>

<sup>101</sup> <https://www.legislation.gov.uk/uksi/2012/2962/contents/made>

<sup>102</sup> [https://assets.publishing.service.gov.uk/government/uploads/system/uploads/attachment\\_data/file/414118/NSPCC\\_online\\_abuse\\_and\\_bullying\\_prevention\\_guide\\_3.pdf](https://assets.publishing.service.gov.uk/government/uploads/system/uploads/attachment_data/file/414118/NSPCC_online_abuse_and_bullying_prevention_guide_3.pdf)

2. Kiberzo'ravonlik turlari, xususan, kiberbullying, kiberstalking, doksing, harrasment va boshqalar hamda ularning ijtimoiy-huquqiy oqibatlari haqida dastlabki tasavvur paydo bo'lishi maqsadida **maktablarda yuqori sinf o'quvchilari uchun maxsus kurslar, interaktiv metodlarga asoslangan seminar-treninglar tashkil etish.**

3. Kiberzo'ravonlikning oldini olish, uning oqibatlarini yumshatishga qaratilgan loyihalar uchun grantlar e'lon qilish, mazkur yo'nalishdagi tadqiqotlarga malakali milliy va xorijiy mutaxassislarini jalg qilish.

4. Kiberzo'ravonlikning oldini olishda **nodavlat notijorat tashkilotlarining faoliyatini rag'batlantirish, davlat va nodavlat tashkilotlarning o'zaro hamkorligini ta'minlash.**

5. Kiberzo'ravonlik qarshi kurashish bo'yicha **tegishli normativ-huquqiy hujjatlarni qabul qilish**, sohaning huquqiy asoslarini takomillashtirish.

6. Kiberzo'ravonlikning oldini olish bo'yicha har bir maktab va boshqa turdag'i ta'lim muassasalarining **chora-tadbirlar rejasi, dasturini tuzish.**

7. Bolalar va ayollarni kiberzo'ravonlik xavfidan ogohlantirish, ijtimoiy tarmoqlar, Internet va boshqa raqamli vositalardan foydalanish madaniyatini oshirish, kiberxavfsizlik talablarini o'rgatish maqsadida **ijtimoiy roliklarni ishlab chiqish va keng ommaga taqdim etish.**

8. Kiberzo'ravonlik va boshqa turdag'i kiberjinoyatlarning oldini olish, xavfini kamaytirish maqsadida **Milliy kiberxavfsizlik strategiyasi va dasturini ishlab chiqish.**

9. Kiberxavfsizlik bo'yicha **onlayn o'quv-seminarlari va o'quv materiallarini o'zida jamlagan ma'rifiy sayt yaratish.**

10. Bolalar va ayollar uchun kiberzo'ravonlikka uchralgan holatda murojaat qilish uchun **qisqa raqamli telefon liniyasi va Telegram botini tashkil etish.**

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Alimov, S. K., & Alimova, N. R. (2023). KIBERSTALKING: TURLARI, KO'RINISHLARI VA IJTIMOIY OQIBATLARI. Academic Research in Educational Sciences, 4(7), 106–113.
2. Aripova, A. (2022). KIBER ZO 'RAVONLIK DAN BOXABARMISIZ?. Евразийский журнал академических исследований, 2(9), 46-48.
3. [https://www.itu.int/dms\\_pub/itu-d/opb/str/D-STR-GCI.01-2021-PDF-E.pdf](https://www.itu.int/dms_pub/itu-d/opb/str/D-STR-GCI.01-2021-PDF-E.pdf)
4. <https://cyberbullying.org/federal-commission-on-school-safety>

5. <https://www.pewresearch.org/internet/2018/09/27/a-majority-of-teens-have-experienced-some-form-of-cyberbullying/>
6. <https://cyberbullying.org/teen-sexting-research-2016-2019>
7. <https://www.stopbullying.gov/>
8. <https://www.pacer.org/bullying/>
9. <https://www.meganmeierfoundation.org/>
10. <https://onlineharassmentfieldmanual.pen.org/>
11. <https://cyberbullying.org/about-us>
12. [https://www.itu.int/dms\\_pub/itu-d/opb/str/D-STR-GCI.01-2021-PDF-E.pdf](https://www.itu.int/dms_pub/itu-d/opb/str/D-STR-GCI.01-2021-PDF-E.pdf)
13. <https://www.nationalbullyinghelpline.co.uk/cyberbullying.html>
14. <https://www.internetsafetystatistics.com/anti-cyberbullying-laws-in-uk/>
15. <https://anti-bullyingalliance.org.uk/tools-information/all-about-bullying/bullying-and-law/online-bullying-and-law>
16. Pat Strickland Jack Dent. Online harassment and cyber bullying//  
BRIEFING PAPER. 2017. P. 7.  
<https://researchbriefings.files.parliament.uk/documents/CBP-7967/CBP-7967.pdf>
17. <https://www.legislation.gov.uk/ukpga/1997/40/section/2A>
18. DCMS, Government launches major new drive on internet safety, 27 February 2017. <https://www.gov.uk/government/news/government-launches-major-new-drive-on-internet-safety>
19. <https://publications.parliament.uk/pa/cm201719/cmselect/cmpubacc/1745/1745.pdf>
20. <https://www.cps.gov.uk/legal-guidance/social-media-and-other-electronic-communications>
21. <https://www.ncsc.gov.uk/>
22. [https://assets.publishing.service.gov.uk/government/uploads/system/uploads/attachment\\_data/file/444865/Advice\\_for\\_parents\\_on\\_cyberbullying.pdf](https://assets.publishing.service.gov.uk/government/uploads/system/uploads/attachment_data/file/444865/Advice_for_parents_on_cyberbullying.pdf)
23. [https://assets.publishing.service.gov.uk/government/uploads/system/uploads/attachment\\_data/file/1069987/Cyberbullying\\_Advice\\_for\\_Headteachers\\_and\\_School\\_Staff\\_121114.pdf](https://assets.publishing.service.gov.uk/government/uploads/system/uploads/attachment_data/file/1069987/Cyberbullying_Advice_for_Headteachers_and_School_Staff_121114.pdf)
24. <https://learning.nspcc.org.uk/child-abuse-and-neglect/bullying#skip-to-content>
25. <https://www.securityforum.org/>
26. <https://www.childnet.com/>
27. <https://www.legislation.gov.uk/uksi/2012/2962/contents/made>

28. [https://assets.publishing.service.gov.uk/government/uploads/system/uploads/attachment\\_data/file/414118/NSPCC\\_online\\_abuse\\_and\\_bullying\\_prevention\\_guide\\_3.pdf](https://assets.publishing.service.gov.uk/government/uploads/system/uploads/attachment_data/file/414118/NSPCC_online_abuse_and_bullying_prevention_guide_3.pdf)